

Sodiqov Furqat Fatulloevich

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti

furkatsodikhov@gmail.com

O‘ZBEKISTON SSR BIRINCHI KONSTITUTSIYASIDA MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARI FAOLIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1927-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSR birinchi Konstitutsiyasida mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati bilan bog‘liq qismlari tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy boshqaruv idoralarining tuzilishi, vakolatlari, saylov tizimi bilan bog‘liq masalalar atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Konstitutsiya, syezd, sovet, deputat, okrug, rayon, shahar soveti, qishloq soveti, ijroiya qo‘mita, prezedium, delegat.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ УПРАВЛЕНИЯ В ПЕРВОМ КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКСКАЯ ССР

Аннотация. В данной статье анализируются положения первой Конституции Узбекской ССР, принятой в 1927 году, касающиеся деятельности местных органов управления. Также подробно рассматриваются вопросы, связанные со структурой, полномочиями и избирательной системой местных органов управления.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Конституция, съезд, совет, депутат, район, округ, городской совет, сельский совет, исполнительный комитет, президиум, делегат.

ACTIVITIES OF LOCAL AUTHORITIES IN THE FIRST CONSTITUTION OF THE UZBEK SSR

Annotation. This article analyzes the provisions of the first Constitution of the Uzbek SSR, adopted in 1927, which limited the activities of local government bodies. It also examines in detail the structure, powers, and electoral system of local government.

Keywords: Uzbek SSR, Constitution, congress, council, deputy, district, okrug, city council, village council, executive committee, presidium, delegate.

Kirish. O‘zbekiston SSR 1925-yil fevral oyida rasman tuzilgach, muvaqqat davlat boshqaruv idoralari shakllantirildi. Ushbu idoralari uchun Turkiston ASR boshqaruv shakli asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, 1924-25-yillarda o‘tkazilgan rayonlashtirish siyosati natijasida O‘zbekiston SSR rayonlarga bo‘lingan edi. Lekin, mahalliy boshqaruv idoralari shakllanishi uchun qonuniy asos 1927-yilda qabul qilingan Konstitutsiya hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiyada mahalliy boshqaruv idoralarining huquqiy asosi, tuzilishi, vazifa va vakolatlari, saylanish tartibi belgilab berilgan edi. Shuningdek, aynan ushbu Konstitutsiya sovet hukumatining jamiyatda sinfiy kurash va aksilsovet toifalarga qarshi kurashning huquqiy asosini yaratib berdi.

Asosiy qism. O‘zbekiston SSR tashkil etilgach, uning Konstitutsiyasi 1927-yil 30-mart kuni O‘zbekiston SSR Sovetlarining II syezdida qabul qilindi. Mazkur Konstitutsiya 8 bo‘lim, 17 bob va 114 moddadan iborat. Ushbu Konstitutsiya O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruvning qonuniy asosini belgilab bergan.

Mazkur Konstitutsiyaning 5 bo‘lim, 9 bobi Sovetlar syezdlari haqida bo‘lib, 70-moddasida, “Joylarda oliy hokimiyatni o‘z vakolatlari doirasida va okrug yoki tuman hududi doirasida tegishli okrug yoki rayon Sovetlarining qurultoylari, qurultoylar oralig‘ida esa tegishli ijroiya qo‘mitalari tashkil etadi.” – deb yozilgan. Shuningdek, O‘zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv okrug va rayon syezdlari hamda shahar va qishloq sovetlaridan iborat edi. Okrug va rayonlarda hokimiyat

16 sovetlarning syezdlari qoʻlida edi. Syezdlar yilda bir mata chaqirilgan boʻlib, okrug delegatlari 350 kishidan, rayonniki esa koʻpi bilan 200 kishidan tuzilgan. Syezdlar oʻzining ijroiya qoʻmitasini saylagan va mazkur ijroiya qoʻmitalari syezdlar oraligʻida ushbu hududlarni boshqargan. Okrug va rayon ijroiya qoʻmitalari doimiy ishlovchi prezidiumi(rayosat)ni saylagan. Prezidiumlar ijroiya qoʻmitalari majlislari oraligʻida oʻziga tegishli hududlarni boshqargan. Okrug va rayon ijroiya qoʻmitalari mahalliy boshqaruvning turli yoʻnalishlari boʻyicha oʻzining boʻlimlarini tuzgan.

Shahar va qishloq hududlarida hokimiyatni mazkur hudud deputatlarining sovetlari boshqargan. Shahar deputatlarning soveti 350 nafar, qishloqniki esa 50 nafar deputatdan iborat boʻlgan. Ularning vakolat muddati bir yil boʻlib, shahar deputatlari soveti kundalik doimiy ishlash uchun oʻzining ijroiya qoʻmitasini saylagan. Qishloq deputatlari sovetini esa mazkur sovet raisi boshqargan. Mazkur sovetlarning barcha deputatlari oʻzining saylovchilari oldida hisobdor boʻlgan.

Mazkur Konstitutsiyaning XII bobi "Mahalliy sovet hokimiyati organlarining vakolat doiralari toʻgʻrisida"- deb nomlanib, 86-moddasida okrug va tuman ijroiya qoʻmitalari hamda ularning prezidiumlari, shuningdek Deputatlar Sovetlarining vazifalari quyidagicha koʻrsatilgan.

1) Sovet hokimiyatining tegishli yuqori turuvchi organlari barcha qarorlarini hayotga tatbiq etish;

2) ushbu hududning madaniy va xoʻjalik holatini yuksaltirish boʻyicha barcha choralarni koʻrish;

3) mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan barcha masalalarni hal qilish;

4) mahalliy boshqaruv hududi doirasida barcha sovet faoliyatini birlashtirish;

5) mahalliy byudjetlarni tuzish va tasdiqlash;

6) oʻz hududida qonunchilikni, davlat tartibini va jamoat xavfsizligini taʼminlash hamda muhofaza qilish;

7) umumdavlat ahamiyatiga molik masalalarni ham oʻz tashabbusi bilan, ham yuqori turuvchi ijroiya qoʻmitalarining taklifiga binoan muhokama qilish.

Konstitutsiya qabul qilingach, mahalliy boshqaruv idoralariga saylovlar boʻlib oʻtgan. Unda oldingi yillarga qaraganda kambagʻal dehqonlar, batraklar va oʻrtahol dehqonlarning soni koʻp boʻlgan. Shuningdek, 1928/1929-yilga kelib qishloq sovetlari tarkibida batraklar va ishchilarning ortganini va aksincha, boshqa guruhlar (boylar, diniy ulamolar va hokazo)ning kamayganini kuzatish mumkin. Shu bilan birga, qishloq sovetlari aʼzolari soni ortganini koʻrish mumkin. (1-jadval)

1-jadval:

Qishloq sovetlari aʼzolarining tarkibi (1926-1929 y.)

	1926/1927	1928/1929
qishloq sovetlari aʼzolarining umumiy soni	30613	33934
batraklar	17 %	29 %
kambagʻallar	41 %	40 %
oʻrtahollar	26 %	24 %
ishchilar	1,6 %	2,7 %
boshqalar	14,4 %	4,3 %

Shuningdek, saylov tizimi bilan bogʻliq boʻlgan muhim jihat borki, bu saylovchilarning ijtimoiy tarkibi masalasi edi. Sovet hokimiyati doimiy ravishda bu masalada alohida eʼtibor qaratib keldi. Bolsheviklarning gʻoyalariga nisbatan xayrixoh boʻlmagan barcha ijtimoiy qatlamlarning siyosiy huquqlari cheklanib kelindi. Sovet hukumati mahalliy boshqaruv idoralari quyi boʻgʻini boʻlgan volost va qishloqlarda ushbu qatlamlarning mavjudligi, sovet rejimiga qarshi olib borilayotgan qurolli harakatni bostira olmayotganligining asosiy sababi sifatida ham koʻrsatadi.

Saylov huquqidan mahrum qilish uchun asos aynan 1927-yildagi Oʻzbekiston SSR Konstitutsiyasining 93-moddasidan aniq belgilab berildi. Unga muvofiq quyidagilar:

1) daromad olish uchun yollanma mehnatdan foydalanadigan shaxslar;

2) mehnatsiz orttirilgan daromadga: sarmoyadan foizlar, korxonada daromadlari, mulkdan olingan tushum va boshqa daromadga yashovchi shaxslar;

3) xususiy savdogarlar, savdo va tijorat vositachilari;

4) rohib va ruhoniylar;

5) sobiq politsiya, jandamlarning maxsus korpusi va qo'riqlash bo'linmalari xizmatchilari va josuslari, sobiq mahalliy ma'muriyat xizmatchilari (volost boshliqlari, ovul oqsoqollari va h.), Rossiyada xukmronlik qilgan podshoh oilasi a'zolari, sobiq Buxoro amiri va Xiva xoni hamda ularning barcha yaqin qarindoshlari, shuningdek, sobiq Rossiya imperiyasi politsiyasi, jandarm va jazo idoralari rahbarlik qilgan shaxslar va ularga mos keladigan, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi amaldorlar;

6) belgilangan tartibda ruhiy kasal va aqldan ozgan deb tan olingan shaxslar, shuningdek, vasiylikdagi shaxslar;

7) sud hukmi bilan yoki hukumat oliy idoralari maxsus qarori bilan sud hukmi yoki mazkur qarorlarda belgilangan muddatga aktiv va passiv ovoz berish huquqidan mahrum etilgan shaxslar, shuningdek, ma'muriy tarzda surgun qilinganlar (ular surgun muddatiga) aktiv va passiv ovoz berish huquqidan mahrum etilgan» edi.

Saylov huquqidan mahrum qilingan toifalarni tahlil qiladigan bo'lsak, sovet hukumati sotsializm g'oyalari hamda o'z manfaatlaridan kelib chiqib, asosan boy, katta yer egasi, ziyoli, din vakillari va eski tuzum tarafdorlarini saylov huquqidan mahrum qilgan. Ushbu siyosat to 1938-yilgi O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingungacha davom etgan. Sovet hukumati jamiyat tozalash hamda 1937-1938-yillarda gi katta qatag'on siyosati natijasida jamiyat yuqorida ko'rsatib o'tilgan toifalardan to'liq tozalangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 1927-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi sovet ruhi va uslubida, Turkiston ASRning oldingi Konstitutsiyalari asosida tuzilgan bo'lib, ushbu hujjat O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari tuzish, vakolatlari va vazifalari, saylov tizimi va faoliyati bo'yicha asos bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Советские Конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 2. СССР, 1922-1936 гг.: 2015.

2. Sodiqov F. O'zbekiston SSRda mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati(1917-1938 yillar). – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023.

3. Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929). – Ташкент: Узбекистан, 1989.

4. Penati B. The reconquest of East Bukhara: the struggle against the Basmachi as a prelude to Sovietization. Central Asian Survey (December 2007) 26(4).

5. Турсунов Х. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. – Тошкент: 1958.